

## O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN HIKMATLAR VA HIKMATLARNING TASNIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15723537>

**Oqmirzayeva Umida Normurod qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi*

*E-mail: oqmirzayevaumida@gmail.com*

### **Annotasiya**

Ushbu maqolada hikmatlarning ishlatalishi va O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridagi keng miqyosda o'rinni olgan hikmatlarning qo'llanilishi va izohi ifodalangan.

### **Kalit so'zlar**

hikmat, Vatanga muhabbat va sadoqat hissi, halollik, hikmatgo'ylik, haq va haqiqat.

### **Kirish**

O'zbek adabiyotida chuqur ma'naviy-falsafiy mazmuni bilan ajralib turadigan asarlar ko'p. Shunday asarlardan biri O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" nomli asaridir. Bu asarda yozuvchi hayotiy tajribalar asosida inson, jamiyat, axloq, ma'rifat, mehr, vijdon kabi mavzularni yoritadi. Asarning eng muhim xususiyatlaridan biri unda ko'plab hikmatli fikrlar ifodalanishi va ular orqali o'quvchida chuqur tafakkur uyg'otishidir. Bundan tashqari, asar yozuvchining ko'p yillik tajribasidan kelib chiqqan holda, xulosalarini o'quvchilarga taqdim qiladi. Ardoqli va mumtoz shoiramiz Nodirabegim "Maqsad ne edi, jahona kelding, Kayfiyatning bayon etib ket" deganlaridek, O'tkir Hoshimov ham ko'rgan-bilganlarim hosilasini - ayrim kechinmalarini bir to'plam qilgan. Muallifning o'zi ta'kidlaganidek, bu kitobni qariyb qirq yil yozgan. Shunga bo'lsa kerak, kitobdagi har bir sarlavha ostidagi fikrlar o'ylantirishga majbur qiladigan chuqur ma'noga ega.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Tilimiz qadimiy qatlamida shunday terminlar mavjudki, ular milliy-umuminsoniy qadriyatlarga doir ma'nolarni tashiydi, ma'naviy qadriyatlarimizning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Shulardan biri "hikmat" termini hisoblanadi. Arab tilidan o'tgan bu termin adabiyotimiz tarixida keng qo'llangan. Shu asosda alohida she'riyat yo'nalishi ham paydo bo'lган.

Adabiyotimiz tarixini o'rganishda hikmatgo'ylik muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, XX asr boshlarida yaratilgan ba'zi tadqiqotlarda mazkur masala

xususida ham ilmiy ahamiyatga molik fikrlar bayon qilingan. Ammo bu kuzatishlar hikmatgo'y shoirlar va ular merosini o'rganish borasidagi dastlabki ma'lumotlardan iborat edi. To'g'ri, shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi ijodkorlar shaxsi haqida birmuncha taxminiy mulohaza ham bildirib o'tilgan. Shu o'rinda aytish joizki, yaqin yillarda olib borilgan tadqiqotlarda bu taxminning haqiqatda to'g'ri ekani e'tirof etildi.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Hakim ota haqida to'xtalar ekan, hikmatgo'ylik makkabining asoschisi Ahmad Yassaviy bilan ham bog'liq quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: «Hakim ota - oti Sulaymondur va Hoja Ahmad Yassaviyning murididur. Hamonoki, bir kun Hoja tabxe buyurg'ondurlarki, matxabiy o'tin yetmaydur deb kelgandur. Alar asxobg'a degandurlarki, yozidin o'tin terib kelturung va ul zamon yog'in yog'adur ekandur. Asxobkim, o'tun terubdurlar, matbxag'a kelguncha yog'in jihatidin o'tunlar o'l bo'lg'ondur. Hakim ota tergan o'tunlarni to'nig'a chirmab, quruq kelturgandur. Hoja hazratlari degandurlarki, ey farzand hakimona ish qilding va alarg'a bu laqab andin qolg'andur va Hakim otaga hikmat tili go'yo bo'lubtir. Andoqli, aning favoidi atrok orasida mashhurdir. Ul jumladin biri buldurkim:

Tiki turg'on to'badur,  
Borganlarni yutadur,  
Borganlar kelmas bo'ldi,  
Magar manzil andadur».

Ma'lum bo'ladiki, hikmatgo'ylik - «hakimona ish qilmoq» bilan aloqador bo'lib, bu yo'nalishda ijod qilish, ya'ni «hikmat tili go'yo bo'lishi» biror pir ta'sirida amalga oshgan deyish mumkin. Chunki mazkur parchada tilga olib o'tilgan «o'tin» bilan bog'liq voqealar o'z navbatida majoziy xarakterga ega. Shuning uchun ham adabiyotshunos I.Haqqulov bu haqda shunday degan edi: «Hakim otaning faqat laqabga erishishi emas, unga «hikmat tili»ning «go'yo» bo'lishi ham bevosita Yassaviy ta'siri bilan ham aloqadorligini Navoiy fikrlarining ichki mantig'i tasdiqlab turibdi. ...Hakim otaning tergan o'tinlarini «to'nig'a chirmab» quruq keltirgani, bundoq olganda, nima degan hodisa. Nahotki, shuning uchungina u hakim laqabiga musharraf bo'lgan bo'lsa? Bizningcha, unda ramz bor. Bu ramzning mazmuni esa Hakim ota siyosida Yassaviy o'zining sodiq muridi, hikmatlar yaratuvchi izdoshini ko'rganligini bildiradi».

Shuningdek, akademik B.Valixo'jayev «Nasoyimul muhabbat»da mazkur to'rtlikni keltirar ekan, Alisher Navoiy XV asrning ikkinchi yarmida Hakim ota hikmatlarining turkiygo'ylar orasida shuhrat qozonganinigina emas, balki o'sha davrdagi nusxasini misol keltirish orqali hikmat mavzui, uning shakliy va til xususiyatlarini o'rganishda bebaho bir badiiy hujjat qoldirganini ta'kidlaydi.

Hikmat inson hayotini tartibga solishga, sokin, sermazmun va sermahsul, xato-kamchiliklardan, toyilishlardan xoli etishiga xizmat qiladigan yuksak bilimdir. Hikmat insonning aqlini charxlaydi, zakovatini oshiradi. Hikmat bilan ish tutish insonning oiladagi, jamiyatdagi martabasini ko'taradi. Hikmat kishiga hayot tajribasini tayyor xulosasini taqdim qiladi. Bir hakimdan : "Inson bir necha yil umr ko'rishi mumkinmi?" deb so'rashibdi. U: "Ha", deb javob beribdi. "qanday qilib?" deyishibdi. Shunda hakim : "Kitob o'qib. Chunki kitob bir insonning bir necha yil, balki bir umrlik tajriba va bilimlarining xulosasi o'larоq dunyoga keladi. Uni o'qigan kishi o'shancha umr ko'rgan hisoblanadi", deb aytgan ekan. Insonga ana shunday asrlarga tatigulik umr baxsh etadigan kitoblar ichida eng qimmatlisi, shubhasiz, hikmatga doir asarlardir. Binobarin, hikmatlarni o'ziga singdira bilgan odam ming yillab umr ko'rgandek tajribaga ega bo'ladi. Chunki ayrim hikmatlar butun bir inson umrining xulosasi o'larоq dunyoga kelgan. Ana shunday hikmatlarni o'rgangan kishi o'sha hikmatlarni aytgan insonlarning umricha hayot kechirgandek bo'ladi.

### **Muhokama va natijalar**

O'tkir Hoshimov hikoya, qissa va romanlariga sig'magan fikrlarini "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" deb shoirona nom olgan kitobiga qayd etib borganligini ana shular bilan izohlash lozim bo'ladi. Asarda turli xil mavzular yoritilgan bo'lib, unda insoniy fazilatlar, iymon-e'tiqod, vatanparvarlik va milliy g'urur kabi mavzular aks ettiriladi. Ushbu kitobning tarbiyaviy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: Vatanparvarlik va milliy g'urur Asarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va o'zlikni anglash kabi mavzular yoritilgan. Adibning qaydlarini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

### **Vatanga muhabbat va sadoqat hissi;**

*Vatan tuyg'usi*

Qaysi yurtda non arzonroq bo'lsa, o'sha yerga ko'chib yuradigan odamda Vatan tuyg'usi bo'lmaydi.

### **Halollik;**

*Halol va harom*

Ba'zilar "halol va harom" deganda " yeb-ichish mumkin bo'lgan va yeb-ichish mumkin bo'lмаган" narsani anglaydilar... yuzaki tushuncha! Aslida bu- "qilish mumkin bo'lgan va qilish mumkin bo'lмаган" amallar degani hamdir...

Bilasiz: non eng tabarruk ne'mat. Biroq nopolk yo'l bilan topilgan non ham harom! "Noningni halollab ye", degan gap bejiz aytilmagan.

### **Bilim va ilmga intilish;**

*Aql va mansab*

Aql bilan mansabga erishishish mumkin. Mansab bilan aqlga erishib bo'lmaydi.

**Oilaviy qadriyatlar, asarda oilaning muqaddasligi, ota-onasi va farzand o'rtasidagi mehr-muhabbati;**

*Otalar va bolalar*

U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To'rt qiz, uch o'g'ilni oyoqqa turg'azdi. O'g'illarini uylantirdi. Qizlarini chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi. Ko'z yumayotganida "hammalingdan mingdan-ming roziman", dedi... Qarashsa, kafanligi yo'q ekan...

*Munofiq*

Onasini behurmat qilgan odam qo'shni kampirni yaxshi ko'raman desa, ishonmayman. O'z xalqining tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilmagan odamboshqa xalqlarningtilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilaman, desa ishonmayman.

*Tush*

Boshimga tashvish tushsa, bir narsadan qattiq siqilsam, onam tushimga kiradi. Quvonchli damlarda esa, xohlasam ham na onamni, na otamni tushimda ko'rolaman... Qiziq...

*Odob*

Farzandga oson tutmang. Otaning yuziga tik qarolmaydi.

*Xazina*

Dunyoda eng beباو، ammo hamisha tekinga tarqatiladigan xazina bor. Bu-Ona mehri... Otaga oson tutmang. Farzandiga dardini ayta olmaydi.

**- tarix, qatag'on va ayrim kishilarining buqalamunligi to'g'risida;**

*"O'zbek ishi"*

Osmon baravar plan berdilar.

-Bajarasan!-dedilar.

-Bajarolmayman,-dedi.

-Bajarasan!!- dedilar.

- Bajarmayman!!-dedi.

-Qamalasan!!!-dedilar.

Bajardi... Bola-chaqasi ko'p edi...

Orden berdilar... Planni oshirib bajargani uchun...

Keyin... qamadilar... Qo'shib yozgani uchun... Bola-chaqasi ko'p edi...

*Nigilist*

Millatchilik juda xavfli illat. Milliy nigilizm esa undan ham xatarli. Millatchi qo'shnisini yomon ko'radi. Milliy nigilist esa o'zini ham yomon ko'radi!

• Odamxo'rlik-kannibalizm, besh asr avval barham topgan, deydilar... Uday emas. Modomiki, yer yuzida urush balosi bor ekan, shuning o'zi odamxo'rlikdir.

**- Inson va uning fazilatlari;**

*Kulgi va yig'i*

Kulishni bilmaydigan odam-baxtsiz odam. Yig'lashni bilmaydigan odam esa ikki hissa baxtsiz!

*Inson*

Inson shu qadar buyukki, uning fazilatlarini o'lchash- dunyodagi eng baland tog'ning eng baland cho'qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng. Inson shu qadar tubanki, uning illatlarini o'lchash- dunyodagieng baland tog'ning eng baland cho'qqisidan emaklab tushish zahmati bilan teng.

*Gumroh bandalar*

Odamlarga hayronsan. Ota-onasi tirikligida ikki og'iz shirin so'zni tekinga aytmaydi-da, ular o'lganidan keyin ming-ming pul sarflab, o'sha so'zlarni qabrtoshga yozdirib qo'yadi...

*Baxtli va baxtsiz*

Baxtli odam xudbin bo'ladi: baxtsizlarga achinmaydi. Baxtsiz odam ham xudbin bo'ladi: baxtlilarga g'ayirligi keladi.

*Da'vo*

Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha ko'p da'vo qilsa, shuncha nodon bo'ladi!

*Paxtakor*

Ko'ngli- paxtasidek oppoq. Fe'li-paxtasidek yumshoq. Mehri- paxtasidek qaynoq... faqat bitta aybi bor: "paxta qo'yish"ni bilmaydi.

**- insoni komillik haqida;**

*Gunohi - azim*

Do'stni ho'rslash-gunoh. Umr yo'ldoshini ho'rslash- yuz hissa gunoh. Ota-onani ho'rslashming hissa gunoh. Go'dakni ho'rslash- cheksiz gunoh.

*Yaxshilik va yomonlik*

O'z fursatida qilinmagan yaxshilik- yomonlikka yo'l ochishi mumkin.

**- Xudodan qo'rqishning fazilati haqida;**

*Xudoning quadrati*

Tabiat shunaqangi qudratliki, hohlasa, gulshanning qoq o'rtasida sassiq alaf o'stiradi. Hohlasa, botqoqning qoq o'rtasida nilufarni gullatib qo'yadi...

**- Haq va haqiqat xususida;**

*Haqiqat*

Shu qadar shirinki, totib ko'rging keladi. Shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi!

*Oshkoraliq*

Oshkoraliq shunday daraxtki, uning mevasini eng avval chinqiroq maymunlar yeydi.

*Rost va yolg'on*

Haqiqatdan qo'rqqan odam yolg'onning panasiga berkinadi.

*To'la va chala*

Yarim haqiqat chin bilan yolg'onning o'rtasida turadi, degan odam yanglishadi. Yarim haqiqat hamisha chindan ko'ra yolg'onga yaqinroq turadi.

*O'jar*

Haqiqatni mayib qilish mumkin, ammo o'ldirib bo'lmaydi!

*Kuch va adolat*

Adolat Kuchga bo'sungan yurt-vayron yurt.

Kuch adolatga bo'ysungan yurt-bo'ston yurt.

*Adolat*

Adolat bitta bo'ladi, deyish soddalikdir. Adolatning qiyofasi ming xil bo'lishi mumkin. Buunga qayoqdan qarashga bog'liq.

Haqiqat havoga o'xshaydi. Rangini ko'rmaysiz. Ovozini eshitmaysiz. Hidini bilmaysiz... Ammo bir lahza havosiz qolsangiz, bo'g'ilib ketasiz. Kitob ham shunday. Yolg'onga duch kelgan kitobxon bo'g'ilib ketadi.

**- go'dak, bola qalbi hamda uning tili, podshosifatligi xususida;**

*Go'dak isi*

Ayol go'dak isini birinchi farzandi tug'ilganidayoq his etadi. Erkak esa go'dak isi nimaligini nevarali bo'lganidan keyin anglaydi!... Biz-erkaklar doim kechikib yuramiz...

*Aldov*

Biz hammamiz-yolg'onchilarmiz. Ayting, qaysi biringiz aqalli biron marta go'dakka yolg'on gapirmaganman, deya olasiz? Go'dakni aldash eng katta yolg'ondir!

*Sodda va buyuk*

Qadimgi musavvirlar farishtani g'odak qiyofasida tasvirlagani bejiz emas. Bola shu qadar soddaki, biz uning darajasiga tusha olmaymiz. Bola shu qadar buyukki, biz uning darajasiga yetolmaymiz!

**- er-xotinlik va tirik yetim bolalar to'g'risida;**

*"Bilimdon"*

" Ayol qavmini ipidan ignasigacha bilaman", deysizmi? O-o-o, siz daho ekansiz! Aytingchi, sharqdan sekundiga besh-yetti metr tezlikda esayotgan shamol o'n daqiqadan keyin shimolga buriladimi, janubgami? Yarim soatdan keyin izg'iringa aylanadimi, bo'rongami?...

*Mo'tabar zot*

Ayol kishiga avvalo Ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi.

*Bosh aybdor*

Turmush sinovlariga biz-kattalar dosh berolmasak, bolada nima gunoh? Nega bizning aybimiz uchun go'daklar yetim qolib, aziyat chekishi kerak?

*Sham yonmasa..*

Erkak bilan ayol munosabatida aybni nuqul erkakdan izlash insofdan emas. Sham yonmasa, parvona yaqin kelmaydi.

*Qirq jon*

Xotin kishining joni qirqta bo'ladi, desalar ajablanmang. Negaki u bitta jonna o'ziga olib qolib, o'ttiz to'qqiuztasini farzandlariga beradi...

• Ayol-gul. Erkak-bog'bon. Sen gulni xor qilsang, uni o'zga bog'bon siypalaydi... erkakbog'bon. Ayol-gul. Sen bog'bonga tikan sanchsang, u o'zga gulni siypalaydi... ikki o'rtada sening mevang yetim qoladi. Xudo shundan asrasin!

**-kitob va kitobxonlik borasida. To'g'risi, kitob va kitobxonlikning foydalari haqida;**

• Bir hamkasbim nolidi:

- Bugungi kitobxon nodon, savodsiz. Mening qadrimni biladiganlar yuz yildan keyin tug'iladi.

Men yupatdim:

- Gapingiz to'g'ri... Faqat uni notariusdan tasdiqlatib, po'lat sandiqqa solib qo'ying... yuz yildan keyin so'zingizga guvoh topishingiz mushkul...

• Ikkita eng xolis hakam-Kitobxon va Vaqt sinovidan o'tgan asar haqiqiy asardir.

• Yozuvchi o'zi his qilgan hamma narsani to'la to'kis qog'ozga tushira olmaydi. Kitobxon qog'ozga tushira olmaydi. Kitobxon qog'ozga tushganlarning hammasini to'la-to'kis his qilolmaydi. Binobarin, kitob yozayotgan qalamkash hayajoni kitob o'qiyotgan o'quvchi hayajonidan o'n karra kuchliroq bo'ladi. Asar o'qiyotganingizda jinday tabassum qilsangiz, bilingki, o'sha sahifalarni qalamkash rostmana kulib yozgan. Kitob o'qiyotganingizda ko'zingizga bir qatra yosh kelsa, bilingki, qalamkash o'sha sahifalarni rostmana yig'lab yozgan.

• O'z xalqi tanimagan, o'z xalqi sevmagan yozuvchini jahon kitobxoni sevishiga ishonmayman.

**-do'stlik;**

*To'rt toifa*

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan do'st-shunchaki do'st.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida g'oyib bo'ladigan do'st-do'st emas.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida xiyonat qiladigan "do'st"- dushman.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan quvmaydigan, boshingga bulut kelganida izingdan qolmaydigan do'st-haqiqiy do'st.

*Do'st*

Do'st degani daraxt yaprog'iga o'xshaydi. Bahor chog'i-behisob. Kuz kelganda-sanoqli. Yoshlik chog'i-behisob. Keksayganda-sanoqli...

•Mabodo qachondir mansabdor bo'lib qolsang, bilib qo'y: amal kursisida o'tirganingda kim eng ko'p tovoningni yalasa, kursidan tushganingda o'sha birinchi bo'lib sendan yuz o'giradi!

**-Yozuvchilik;**

•Qalamkashga qishloqning qalbi, shaharning aqli kerak.

•Adib qaysi tilda asar yozsa, o'sha xalqning yozuvchisi hisoblanadi. Bu o'rinda millatning daxli yo'q.

•Yozuvchilik-ikki foiz talant, to'qson sakkiz foiz mehnatdir, degan gap to'g'ri bo'lsa, dunyodagi hamma chumolilar yozuvchi bo'lardi!

•Haqiqiy dengizchi ummonda o'zini qanchalik erkin his qilsa, haqiqiy yozuvchi ham so'zlar ummonida shunchalik erkin suzishi kerak. To'rtta jumla yozmay turib, u yog'iga so'z topolmay qoladigan odamdan yozuvchi chiqmaydi.

**Xulosa**

Hayotiy saboqlar kitobda keltirilgan hikmatli fikrlar, masallar va ibratli voqealar o'quvchida to'g'ri yo'l tanlash va hayotdagi qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish ko'nikmasini rivojlantiradi. Umuman olganda, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" yoshlarga nafaqat adabiy zavq beradi, balki ularni komil inson bo'lish sari yetaklaydigan muhim asardir. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobi insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim asar hisoblanadi. Asarda halollik, mehnatsevarlik, sabr va matonat kabi qadriyatlar yuksak darajada aks ettirilgan. Bu kitobdan men hayotda qiyinchiliklarga bardosh berish, doimo ezgulik yo'lidan yurish va bilimga intilish kabi muhim saboqlar oldim. Kitob o'quvchini o'zligini anglashga, oila va jamiyat oldidagi burchini his qilishga undaydi. Har bir inson o'qishi kerak bo'lgan ibratli asarlardan biridir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Hoshimov O'. Daftar Hoshiyasidagi bitiklar.-Toshkent: -2019.

2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat: (Ilmiy-tanqidiy matn). Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va ko'rsatkichlar muallifi X. Islomiy.-T.:Movarounnahr, 2017.

3. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyoziy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr.
4. V. Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. 2-kitob. T.: "O'qituvchi" 1980.
5. B.Valixo'jayev. Mumtoz siymolar. A.Qodiriy nashriyoti.-T.; 2002.